



TILDA ATAMALARNING LEKSIK, SEMANTIK VA ETIK XUSUSIYATLARI QIYOSIY TAHLILI

Abdurashidova Kamola Shuxratbek qizi

Andijon davlat chet tillari instituti 2-kurs magistranti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada tildagi atamalarning leksik, semantik va etik xususiyatlari bog'liq masalalar muhokama qilinadi.*

Kalit so'zlar: *leksika, semantika, paradigmatic, sintagmatic, konstituentiv munosabat, kompozitsion kontsepsiya.*

Har bir til hodisasi yuzlab xususiyat, ya'ni qirralariga ega. Shunga ko'ra til hodisalarida o'rganish manbasi va o'rganish predmeti farqlanadi. Bunda tegishli til hodisasi o'rganish manbasi va uning tadqiq uchun olingan xususiyati o'rganish predmeti deyiladi. Tilshunoslikning sohalari bir o'rganish manbayining qaysi qirrasini o'rganish asosida farqlanadi. Masalan, til leksikasi tilshunoslikning leksikologiya, semasiologiya va onomasiologiya sohalari o'rganish manbasi hisobalanadi. Leksika bevosita yoki bilvosita borliqni ifodalaydi, jamiyatdagi o'zgarishlarni, xalqning moddiy hayoti va ma'naviy olamini aks ettiradi, yangi predmet, hodisa, jarayon va tushunchalarni ifodalash uchun yangi so'zlar bilan muttasil to'lib boradi. O'zida eskirish va yangilanishni to'la aks ettiradi. Iste'mol darajasi susaygan birliklar esa leksikadan butunlay chiqib ketmaydi. Moddiy ishlab chiqarishning har xil sohalari muntazam rivojlanib, yangi yo'nalishlar bilan boyib borishi, fan va texnikaning tinimsiz rivoji yangidan yangi maxsus so'zlar – termin va terminologik qatlamlarni vujudga keltiradi va rivojlantiradi. Bunda e'tiborlisi shundaki, umumiste'mol so'zlarning ayrimlari terminologik tabiat kasb etsa, ayrim terminlar o'z ifodalanishining kundalik turmushda qo'llanish darajasiga bog'liq ravishda umumiste'mol xususiyat kasb etib boradi. Jamiyatda umumiy ta'limning rivoji ham tilning o'rta saviyali sohiblarida til terminologik tizimining xalqchillashuviga olib keladi. Leksikani qayd etuvchi soha leksikografiya bo'lib, uning nazariy va amaliy, an'anaviy va zamonaviy ko'rinishlari mavjud.

Ilmiy ahamiyati. Leksik-semantik sath va uning birligi haqida. Lisoning shakl va denotativ ma'no yaxlitligidan iborat birligini qamrab oluvchi sathi turlicha nomlanadi:



leksik sath, leksik-semantik sath, leksik-frazeologik sath va hokazo. Leksik sath birligi tilshunoslikda leksema deyiladi. Leksema- tilshunoslikning eng muhim va markaziy tushunchalaridan biri. Biroq, uning mazmun va chegarasi hozirgacha aniq belgilangan emas. Tilning leksik, fonetik va grammatik sathlari ham o'zaro bog'liqdir: fonetik birliklar so'zni bog'liq tusiga kiritadi, morfemalar yasama so'zlarni shalkllantiradi, so'zlarning birikuvchanlik imkoniyatlari, uslubiy vosita sifatidagi xususiyatlari ularning leksik va grammatik ma'nolariga hamda uslubiy semalariga tayanadi. Bular leksikologiyaning fonetika, morfemika, so'z yasalishi, grammatika va uslubshunoslik (stilistika) bilan aloqada bo'lishini taqozo qiladi.

Leksikologiya tilning lug'at boyligi sistemasi sifatida tadqiq qilinadi, chunki bu boyluk so'zlar va iboralarning oddiy, mexanik yig'indisi emas, balki birliklar va elementlar tizimidir. Bu tizimdagi so'z va elementlar yaxlit bir "organizm"ning "to'qimali" va "hujayrali" munosabatida bo'ladi: so'zlarning ifoda va mazmun tomonlari orasidagi aloqalar, leksik ma'no va uning semalari o'rtasidagi butun va qism munosabatlari, so'z ma'nolarning paradigmatic va sintagmatic xususiyatlari shundan dalolat beradi. Bu tizimning asosiy birligi so'z ekanligini hisobga olsak, leksikologiyada bevosita so'zning o'zi bilan bog'liq masalalari ham ko'riladi: so'zning til birligi sifatidagi mohiyati, so'z strukturasi (ifoda va mazmun planlari, semantik tarkibi), leksik ma'no va uslubiy semalar, leksik ma'no va etimon, leksik ma'no taraqqiyoti, udual va okkazinal ma'nolari shular jumlasidandir.

Leksik sistema va uning bo'linishlari. Ajralib chiqqan leksik sath bu bosqichda ikki katta - mustaqil va nomustaqil so'zlar guruhiga bo'linadi. Bu bo'linish privativ zidlanish asosida hosil bo'ladi va zidlanish belgisi «ma'noviy va vazifaviy nomustaqillik» (N) dir. Ziddiyatning belgisi a'zosi sifatida nomustaqil leksemalar va belgisiz a'zo sifatida mustaqil leksemalar yuzaga chiqadi. Buning sabablari quyidagicha: Tilning sathli tuzilishi va sath birliklari o'rtasidagi munosabatlar Tilning o'zaro bog'liq va bir-birini taqozo etuvchi bir necha qatlamlardan iborat ekanligi haqidagi qarash o'zining uzoq tarixiga ega. Xususan, til tuzilishining an'anaviy tilshunoslikda uch qismga: (fonetik, leksik va grammatik qismlarga) bo'linishi va bu qismlarni o'rganadigan tilshunoslikning uchta bo'limining ajratilishi tilni ana shunday qatlamlar butunligi sifatida tushunishning yorqin namunasidir. Lekin



sistemaviy-struktur tilshunoslik shakllangunga qadar tilning bunday ichki tuzilishini qatlam sifatida tushunish amaliy kuzatishning ilk natijalari bo'lib, til stratifikatsiyasi ilmiy jihatdan asoslanmagan edi. Sistemaviy-struktur tilshunoslikning shakllanishi va rivojlanishi til ichki tuzilishining o'ziga xos xususiyatini yoritishga, ichki tuzilish birliklarining oddiydan murakkabga qarab bosqichma-bosqich rivojlanib borishi, quyi bosqich birligi o'zidan yuqoriroq bosqich birligi tarkibida o'z funksiyasini ko'rsatishini ilmiy asoslab berdi. Shunday qilib, XX asrning 50- yillaridan boshlab til sathi (lingvistik sath) tushunchasi maydonga keldi. Bu tushunchaning shakllanishi va ilmiy asoslanishida E.Benvenist hamda bir qator deskriptiv tilshunoslar, xususan, Dj.Treyjer, K.Poyk, Ch.Xokket, Z.Xarris singari olimlarning xizmati katta bo'ldi. Lingvistik sath tushunchasining paydo bo'lishiga tilning ikki tomonlama mohiyat ekanligining e'tirof etilishi, shakliy va mazmuniy tomonlarning har biri o'ziga xos ichki tuzilishga ega ekanligi, ularning har qaysisi o'z ichki uzvlari munosabatidan tashkil topgan kichik sistema ekanligi, shunday qilib, tilning tuzilishi sistemalar sistemasi tartibida bo'lishi, ular o'rtasidagi munosabat til mexanizmini harakatga keltirish haqidagi qarashlarning maydonga kelishi turtki bo'ldi.

Metodologik tadqiqoti. Garchi lingvistik sath tushunchasi keyinchalik bir qator tilshunoslar tomonidan e'tirof etilgan bo'lsa ham, lekin bu atama juda keng ma'noda qo'llanila boshladi. Shunday bo'lishiga qaramasdan, lingvistik sath kontseptsiyasi tarafdorlarini birlashtirib turgan umumiy jihatlar mavjud. U ham bo'lsa tilning tipologik tabiatini nisbiy avtonom sistemalar (kichik sistemalar) majmuasi sifatida tasavvur qilish, har bir kichik sistema chegaralangan miqdordagi elementlardan tashkil topadi va bu elementlar shu kichik sistema nuqtai nazardan mayda bo'laklarga bo'linmaslik xususiyatiga ega deb e'tirof etish, shuningdek, har bir kichik sistema o'z ichki elementlarining bir-biri bilan bog'lanish qonun-qoidalariga ega ekanligini e'tiborga olishdir. Sath tushunchasining ma'lum til birliklari yig'indisi tushunchasi bilan aloqasi borligi shubhasiz. Lekin sathni belgilashda qanday lingvistik belgilarga tayanish masalasini aniqlash katta ahamiyatga ega. V.M.Solntsev fikricha, tilda yasama so'zlar yig'indisi qo'shma so'zlar yordamida hosil bo'lgan birliklar yig'indisidan farq qiladi. Shuningdek, o'zak morfemalar yordamida hosil bo'lgan birliklar yig'indisi affiks morfemalar yordamida hosil bo'lgan birliklardan farq qiladi. Ana shu bir-biridan farq qiladigan birliklar yig'indisiga asoslanib, "Yasama so'zlar



sathi”, “Qo’shma so’zlar sathi”, “O’zak morfemalar sathi”, “Affiks morfemalar sathi” kabi sathlarni ajratish sath tushunchasini chegarasiz bir tushunchaga aylantirib yuboradi. Tilda nechta til birliklari guruhlanishi mavjud bo’lsa, shuncha til sathini ajratishga olib keladi. Xususan, N.A.Slyusareva yordamchi so’zlar guruhini mustaqil so’zlar guruhidan ajratgan holda servologik sath, E.Benvenist fonemalarning farqlovchi belgilarini alohida sath – merizmatik sath sifatida ajratganini eslash kifoya. Til birliklarini muayyan guruhlarga turli belgilar asosida birlashtirish mumkin. Shunga muvofiq ravishda sath tushunchasi nisbiy bo’lib qoladi va bu tushuncha ayrim birliklarning ma’lum belgi asosida birlashgan guruhining oddiy nomiga aylanib qoladi. Tilning ichki tuzilishini sathlarga ajratishda ana shunday boshboshdoqlikni bartaraf qilish uchun til birliklarining doimiy, barqaror sathlarini ajratishga imkon beradigan belgilariga tayanish lozim. Ana shunday belgi til birliklarining pog’onaviylik belgisidir. Xuddi ana shu belgi deskriptiv tilshunoslik vakillari tomonidan tilni sathlarga ajratishning asosiy belgisi sifatida e’tirof etilgan edi. Lisoniy birlikning ana shu pog’onaviylik belgisi lingvistik sathni belgilashning asosiy tamoyili sifatida e’tirof etilganda til ichki tuzilishining pog’onaviylik tabiati to’g’ri yoritilgan bo’ladi. Bunga muvofiq, lingvistik sath tushunchasi ostida o’zaro pog’onaviy munosabatda bo’lgan nisbiy bir xil birliklar munosabati anglashiladi. Bir sath birliklari boshqa sathga mansub (o’zidan katta yoki o’zidan kichik) bo’lgan birliklar bilan pog’onaviy munosabatda bo’ladi.

Bunda quyi sath birligining yuqori sath birligidan tashkil topish, quyi sath birligi yuqori sath birligi tarkibiga kirish xususiyati aks etadi. Ana shunday birliklar majmuasi nisbiy bir xil bo’lgan birliklar ustparadigmasini tashkil etadi va ular shu ustparadigma doirasida ma’lum sinfga birlashadi (fonemaning turli sinflari, morfemaning turli sinflari va boshq.). Har bir sinf a’zolari o’zaro sinfga xos bo’lgan belgisi asosida muayyan paradigmalarga birlashish bilan birgalikda bir-biri bilan ketma-ket bog’lanib, sintagmatik zanjirni hosil qiladi. Shunday qilib, tilning ko’psathlilik kontseptsiyasi tarafdorlarining ko’pchiligi uchun umumiy tomon tilni chegaralangan miqdordagi birliklardan tashkil topgan nisbiy avtonom kichik sistemalarning integrativ munosabatidan tashkil topgan yaxlitlik sifatida e’tirof etishdir. Natija va takliflar. Til sathlarini e’tirof etuvchi tilshunoslarning fikricha, turli sath birliklari o’rtasida integratsion munosabat mavjud bo’ladi. Bu kontseptsiya tarafdorlari til sathlari o’rtasidagi aloqani e’tiborga olgan holda,



tilga yagona ierarxik shakllangan sathlar sistemasi sifatida qaraydilar. Tilning ichki tuzilishiga bunday yondashuv kompozitsion kontseptsiya deb yuritiladi va u representativ kontseptsiyaga qarama-qarshi qo'yiladi. Kompozitsion kontseptsiyaga muvofiq, tilning ichki tuzilishi bir xil yo'nalishdagi pog'onalanishdan (ierarxiyadan) iborat. Bu shundan iboratki, fonema, morfema va undan katta birliklar o'rtasida bir xil yo'nalishdagi pog'onali munosabat mavjud. Quyi sath birligi yuqori sath birligi uchun qurilish materiali bo'lib xizmat qiladi. Quyi sath birligi yuqori sath birligi tarkibida uning tarkibiy qismi (konstituenti) sifatida vazifa bajaradi. Shuning uchun til sathlari o'rtasida quyidan yuqoriga yo'nalgan munosabat e'tirof etiladi va bu munosabat bir xil turdagi, konstituentiv munosabat sanaladi. Konstituentiv munosabat "dan tashkil topadi", "ga kiradi" sxemasini o'zida namoyon etadi. Har bir sath birliklari umumiylik va xususiylik dialektikasini o'zida namoyon etadi. Imkoniyat tarzidagi umumiy, invariant birliklar bevosita nutqiy jarayonda turli- tuman variantlar orqali namoyon bo'ladi. Ana shunday invariant-variant munosabati tilning hamma sath birliklari uchun xarakterlidir. Bevosita sezgi a'zolarimizga ta'sir etgan birliklar variantlar sanaladi. Bu variantlarni bir-biriga solishtirish orqali ular zamirida yotgan substansiyani belgilash asosida invariantlar aniqlanadi. Fonologik sathda fonemalar invariant birliklar sanaladi. Ularning har biri bevosita kuzatishda, nutqiy jarayonda bir necha variantlar orqali namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham bevosita kuzatishdagi matndan ajratilgan eng kichik segment birliklar invariant birlik bo'lgan fonemalar emas, balki uning variantlari sanaladi. Shunday qilib, morfema bevosita kuzatishda ham shakliy, ham mazmuniy variantlar orqali yuzaga chiqadi. Boshqacha aytganda, har bir tilda elementlar muayyan sinf yoki paradigmani tashkil etgan variantlar qatori orqali gavdalanadi. Morfema vazifasi va ma'nosiga ko'ra leksik va grammatik morfemalarga bo'linadi. Yuqorida grammatik morfemalarning ikki planda variantlanishi haqida fikr yuritildi. Xuddi ana shu holat leksik morfemalarga (leksemalarga) ham daxldordir. Leksemaning shakliy variantlari uchun leksik-shakliy variantlar (LSHV), mazmuniy variantlari uchun esa leksik-mazmuniy variantlar (LMV) atamaları qo'llaniladi. Xulosa. Xullas, tilning barcha sath birliklari umumiylik-xususiylik, imkoniyat-voqelik dialektikasini o'zida namoyon etgan holda, invariant-variant munosabati birligidan iborat bo'lib, imkoniyat, mohiyat xarakteriga ega bo'lgan invariant bevosita kuzatishda, nutqiy jarayonda variantlar orqali namoyon bo'ladi.



Invariant-variant munosabati tilning barcha sath birliklari uchun umumiy, universal munosabatdir. Shu jumladan, inson aqliy qobiliyatiga oid atamalar, ya'ni:

O'ylamoq	Umid qilmoq	Xursand bo'lmoq	Tanimoq
Yaxshi ko'rmoq	Nafratlanmoq	Qayg'urmoq	Ovunmoq
Orzu qilmoq	Hayol surmoq	Xafa bo'lmoq	Kuzatmoq
Fikrlamoq	Diqqat qilmoq	O'ksinmoq	Ko'zlamq
His qilmoq	Umid qilmoq	Sevmoq	Niyyat qilmoq
Yaxshi ko'rmoq	Nafratlanmoq	Faxrlanmoq	Sevinmoq
Orzu qilmoq	Hayol surmoq	Bilmoq	

Xulosa qilib aytganda, butun dunyo tillari har tomonlama tasnif qilinadi va ular leksik, sintaktik, grammatik va semantik oziga xosliklarni qamrab oladi. Jahon tillarining aynan shunday xarakteristikalarini esa tilshunoslik fani o'rganuvchilarini sinchkov bo'lishga undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. В.Виноградов, «Вопросы языкознания»1961, стр.3-10)
2. Ким В.Н., Ким Т.С. Социально-политическая терминология.–Т., . 2009.С.
3. Мусаев К. М. Формирование, развитие и современные проблемы терминологии. 1986. -с.163).
4. Safarov SH. Pragmalingvistika. –Т.:Fan, 2008;
5. Safarov SH. Kognitiv tilshunoslik. –Т. Fan, 2007; Toirova G., Safarov SH. Nutqni sotsiopragmatik o'rganish asoslari. –Jizzax:NS, 2006.
6. Akobirov S. Til va terminologiya. -Т., 1968. Begmatov E.Hozirgi o'zbek tilining lek sik qatlamlari. – Т., 1985.
7. Mengliyev B., Sayfullayeva R. va boshq. Milliy tilshunoslik mustaqil rivojlanish yo'lida // “Ma'rifat” gazetasi, 2007 yil 21 may
8. Safarov SH. Pragmalingvistika. –Т.:Fan, 2008
9. Nurmonov A. Hozirgi O'zbek adabiy tili. –Т.: Sharq, 2002. –B. 62-63